

1-AMALIY MASHG`ULOT.

MAVZU: O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING “TA`LIM TO`G`RISIDA”GI QONUNINING AHAMIYATI.

Amaliy mashg`ulot maqsadi: *Ta`lim to`g`risidagi qonunning moxiyati va yoshlarni hayotidagi o`rni to`g`risida tushunchalar bilan tanishish*

O`zbekiston Respublikasining ta`lim tizimi quyidagilardan iborat:

-davlat ta`lim standartlariga muvofiq ta`lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta`lim muassasalari;

-ta`lim tizimi ishlashi va rivojlanishi uchun kerakli tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy-pedagogik tashkilotlar;

-ta`lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari shuningdek ular boshqaruvi ostidagi korxona, muassasa va tashkilotlar.

O`zbekiston Respublikasi ta`lim tizimi yagona va yaxlidtdir.


O`zbekiston Respublikasida ta`lim quyidagi ko`rinishlarda amalga oshiriladi:

- maktabgacha ta`lim;
- umumi o`rta ta`lim;
- maktabdan tashqari ta`lim;
- o`rta maxsus kasb-hunar ta`limi;
- oliy ta`lim;
- oliy ta`limdan keyingi ta`lim;
- malaka oshirish va kadrlarni qayta taylorlash.



Ta`limni boshqarish organlari

Ta`lim tiziminining umumiy boshqaruvini Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi alohida oliy ta`lim muassasasi, Toshkent Islom Universiteti va xalqaro mashhur xorijiy OTMlari (MDU, Westminster Universiteti va hokazo) filiallarini bevosita boshqaradi.



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolatlariga quyidagilar kiradi:


- ta`lim sohasida yagona davlat siyosatini olib borish;
- davlat ta`lim boshqaruv organlariga rahbarlik qilish;
- ta`limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ta`lim muassasalarini yaratish, qayta tashkil etish va bekor qilish tartiblarini belgilash;
- ta`lim muassasalari akkreditaqiyasi, pedagogik va ilmiy kadrlar attestaqiyasi tartiblarini belgilash;
- boshqa davlatlar ta`lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasi hududida ta`lim ko'rsatish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;
- qonunchilikka mos ravishda xorijiy davlatlarning ta`lim haqidagi hujjatlarini tan olish tartibini belgilash va teng-kuchli ekanligini o'rnatish;
- davlat ta`lim standartlarini belgilash;
- davlat namunasidagi ta`lim hujjatlarini va ularning berilish tartibini belgilash;
- ta`lim muassasalariga qabul tartibi va davlat grantlari miqdorini belgilash;
- davlat oliy ta`lim muassasalari rektorlarini tayinlash;
- ta`lim olayotganlarni bir akkreditaqiyalangan ta`lim muassasasidan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash;

-qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa vakolatlar.

O'zbekistonda ta'lif tizimlari faoliyatini bevosita boshqarishni ikki vazirlik - Xalq Ta'lifi Vazirligi (XTV) va Oliy va O'rta Maxsus Ta'lif Vazirligi (OO'MTV) - amalgalashiradi.

XTV - maktabgacha, maktabdan tashqari muassasalar va umumiyligida ta'lif maktablari faoliyatini uchun mas'uldir. XTV boshqaruvida 5 ta oliy ta'lif muassasasi va 16 ta o'qituvchilar malakasini oshirish institutlari mavjud. Vazirlik joylardagi tegishli ta'lif muassasalarini faoliyatini metodologik boshqaruvchi viloyat, tuman va shahar xalq ta'lifi bo'limlariga ega.

OzR XTV tizimi tashkiliy tuzilmasi



OO'MTV - respublikada oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifiga rahbarlik qiluvchi davlat boshqaruv organi hisoblanadi. Vazirlik o'z faoliyatini bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi. Vazirlik tizimiga O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi markazi, Oliy va o'rta maxsus ta'lif, kasb-hunar ta'lifini rivojlantirish markazi va idoraviy mansub oliy o'quv yurtlari kiradi.

Davlatimiz fuqarolarining bilim olishlari O'zbekiston Respublikasi konstituqiyasi bilan kafolatlangan. O'zbekiston Respublikasi yoshlar tarbiyasida ta'lif muxim ahamiyat kasb etadi. Vatan ostonadan boshlanganidek, bolalarimiz ta'lif-tarbiyasi oiladan boshlanadi. Demak, kelajak avlodimiz har taraflama yetuk, sog'gom, bilimli, o'z vataniga sadoqatli bo'lib yetishishi uchun har birimiz mas'ulmiz. E'tiboringizga ta'lif tizimining asosiy boshqaruv organlari, XTV va OO'MTV to'g'risidagi Nizomlarni havola qilamiz. Ta'lif va tarbiya to'g'risidagi fikr-mulohazalarining forumning "Ta'lif" bo'limida bildirishingiz mumkin. Buning uchun albatta forum ro'yxatidan o'tishingiz shart.

OzR OOMTV tizimi tashkiliy tuzilmasi



O‘zbekiston Respublikasining Qonuni **Ta’lim to‘g‘risida** Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma’qullangan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi: Ushbu Qonunning maqsadi ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Ta’lim to‘g‘risidagi qonunchilik: Ta’lim to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi qonunchiligidagi nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

(*2-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-ton*)

3-modda. Asosiy tushunchalar: Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

davlat akkreditaqiyasi — davlat ta’lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat ta’lim tashkilotlari (bundan buyon matnda ta’lim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablariga hamda o‘quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e’tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon;

davlat ta’lim muassasasi — davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo‘lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta’lim standartlariga va davlat ta’lim talablariga muvofiq ta’lim beradigan muassasa;

davlat ta’lim standartlari — davlat tomonidan ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta’lim talablari — ta’limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta’lim oluvchilarining jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo‘yiladigan majburiy talablar;

malaka — shaxsnинг kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma’lumot to‘g‘risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko‘nikmalar darajasi;

mutaxassislik — malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

nodavlat ta’lim tashkiloti — davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan liqenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxs;

tarbiya — aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta’lim — ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta’lim kampusi — yagona hududda birlashtirilgan o‘quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini o‘z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo‘lgan, o‘quv jarayoni, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta’minlaydigan ta’lim-tarbiya muhiti;

ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari — ta’lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarining ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

ta’lim tashkilotlari attestaqiyasi — ta’lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari hamda o‘quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo‘yicha davlat nazoratining asosiy shakli.

4-modda. Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar

Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

- ta’lim ustuvorligining tan olinishi;
- ta’lim olish shaklini tanlash erkinligi;
- ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;
- ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’milanishi;
- ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;

- ta'lism va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi;
- davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqlashtirilganligi;
- insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;
- jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;
- ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

5-modda. Ta'lim olish huquqi

Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Ta'lim olish huquqi:

- ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish;
- ta'lim tashkilotlarida innovaqion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarini innovaqion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish;
- ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta'lim olishni tashkil etish;
- kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limni va boshlang'ich professional ta'limni bepul olish;
- oilada yoki mustaqil o'qish orqali ta'lim olgan fuqarolarga, shuningdek umumiy o'rta ta'lim olmagan shaxslarga akkreditaqiyadan o'tgan davlat ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestqaqiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Chet ellik fuqarolar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga va qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida ta'lim olishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan fuqaroligi bo'limgan shaxslar ta'lim olish uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

40-modda. Ta'lim to'g'risidagi hujjat

Akkreditaqiya qilingan ta'lim tashkilotlarining davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim olgan bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma, diplom, sertifikat, guvohnoma) beriladi. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjat oilada ta'lim olgan yoki mustaqil ta'lim olgan hamda akkreditaqiya qilingan davlat ta'lim

muassasalarining tegishli o‘quv dasturlari bo‘yicha eksternat tartibida yakuniy va davlat attestaqiyasidan o‘tgan shaxslarga ham beriladi.

O‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim hamda oliv ta’lim to‘g‘risidagi diplomga o‘zlashtirilgan fanlar ro‘yxati, ularning hajmlari va fanlar bo‘yicha baholari yozilgan varaqo ilova qilinadi.

Tegishli ilmiy darajani olish uchun dissertaqiya himoya qilgan shaxslarga falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining va xorijiy davlatlarning hukumatlari o‘rtasidagi ikki tomonlama bitimlar asosida ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarni o‘zaro tan olish amalga oshirilishi mumkin.

Uzluksiz ta’limning tegishli turini tamomlamagan shaxslarga belgilangan namunadagi ma’lumotnoma beriladi.

Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta’lim to‘g‘risidagi hujjat, shuningdek nodavlat ta’lim tashkilotlari tomonidan beriladigan O‘zbekiston Respublikasida tan olinadigan ta’lim to‘g‘risidagi hujjat uzluksiz ta’limning keyingi turi (darajasi) bo‘yicha o‘qishni davom ettirish yoki tegishli mutaxassislik va kasb bo‘yicha ishslash huquqini beradi.

Xorijiy davlatlarning va O‘zbekiston Respublikasining oliv ta’lim tashkilotlari o‘rtasida tuzilgan shartnoma asosida ularning bitiruvchilariga O‘zbekiston Respublikasi hududida oliv ma’lumot to‘g‘risidagi hujjat sifatida tan olinadigan ikki tomonlama diplom (Double Diploma) berilishi mumkin.

Nazorat savollari:

- 1.O‘zbekiston respublikasi ta’lim to‘g‘risidagi qonun qachon qabul qilingan?
2. Ta’lim ishtirokchilari kimlar?
- 3.Ta’lim strukturasi deganda nimani tushunasiz?
4. Uzluksiz ta’limning tegishli turini tamomlamagan shaxslarga belgilangan ma’lumotnoma?
- 5.Ta’lim olish xuquqi deganda nimani tushunasiz ?

TOPSHIRIQ

BILAMAN. BILISHNI XOXLAYMAN.

BILIB OLDIM” (BBB) METODI

Metod talabalarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baxolay olish imkonini beradi. Uni qo'llashda talabalar gurux yoki jamoada ishlashlari mumkin. Guruxda ishlashda mashg'ulot yakunida guruxlar tomonidan bajarilgan ishlar taxlil qilinadi. guruxlar faoliyati quyidagi ko'rinishda tashkil etilishi mumkin:

O'quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog'ozida o'z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

BILAMAN	BILIB OLDIM	BILISHNI XOHLAYMAN